

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**YO'L SOHASINI BOSHQARISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHGA OID CHORA-TADBIRLAR  
TO'G'RSIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi yo'l xo'jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5890-son [Farmoniga](#) muvofiq, shuningdek, respublika yo'l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish va uning investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi [1-ilovaga](#) muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi markaziy apparatining tuzilmasi [2-ilovaga](#) muvofiq;

ustav fondidagi davlat ulushi "Yo'lqurilish" AJga o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi korxonalar ro'yxati [3-ilovaga](#) muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi ixtiyoriga o'tkaziladigan ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari ro'yxati [4-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi (keyingi o'rinlarda — Qo'mita) raisiga quyidagi huquqlar berilsin:

Qo'mita markaziy apparatining tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining belgilangan cheklangan soni doirasida o'zgartirishlar kiritish;

avtomobil yo'llarini ta'mirlash va ekspluatatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi mustaqil korxonalar va boshqa korxonalar, shu jumladan qo'shma korxonalar tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda Qo'mita tarkibidagi korxonalarni birlashtirish va tugatish.

2. Belgilansinki:

Qo'mita raisining o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Qo'mita o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga va Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda kiritish huquqiga ega;

avtomobil yo'llari va yo'l xo'jaligi masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari Qo'mita bilan albatta kelishilishi lozim;

Qo'mitaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi;

tuman yo'l-ekspluatatsiya korxonalarini, yo'llardan muntazam foydalanish korxonalarini, "O'zyo'lko'klamzorlashtirish" UKning hududiy bo'linmalari, ko'priklardan foydalanish korxonalarini va Qo'mitaning boshqa yo'l-ekspluatatsiya korxonalarini saqlab turish, shu jumladan ularning xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularga rag'batlantiruvchi qo'shimcha haq hamda ustamalar to'lash ushbu korxonalar tomonidan bajariladigan ish hajmlari mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Qo'mita tomonidan jalb qilinadigan xalqaro konsultantning mehnatiga haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasini rivojlantirish va faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) hisobidan amalga oshiriladi;

3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2020-yil 1-yanvardan boshlab:

*Oldingi tahrirga qarang.*

respublika hududida (Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlari bundan mustasno) avtotransport vositalarining ruxsat etilgan vazn va gabarit parametrlarini nazorat qilish, shuningdek, avtomobil yo'llari bo'ylab og'ir vaznli va/yoki yirik gabaritli avtotransport vositalarining harakatlanishi uchun yig'imlar undirish va ruxsatnomalar berish Qo'mita tomonidan amalga oshiriladi;

*(3-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-noyabrda PQ-5273-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.11.2021-y., 07/21/5273/1014-son)*

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida yo'l harakatini tartibga solishning texnik vositalari va ularning konstruksiyalari, shu jumladan foto- va videoqayd etish texnik vositalari Qo'mita bilan kelishilgan holda o'rnatiladi;

avtomobil yo'llarining qatnov qismlariga uzunasiga joylashgan muhandislik kommunikatsiyalarining yangi tarmoqlarini loyihalashtirish va yotqizish taqiqlanadi, ularning avtomobil yo'llari bilan ko'ndalang kesilishi bundan mustasno.

*Oldingi tahrirga qarang.*

### 3<sup>1</sup>. Belgilansinki:

a) O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida chet davlatlar avtotransport vositalarining, shu jumladan respublikaga kirib kelayotgan og'ir vaznli va/yoki yirik gabaritli transport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit o'tishi uchun yig'imlar va to'lovlar amalga oshirilishi, shuningdek, tashuvchilar tomonidan transport vositalarining ruxsat etilgan vazn va gabarit parametrlariga rioya etilishi ustidan nazorat bo'xona organlari tomonidan amalga oshiriladi;

b) 2021-yil 1-dekabrda boshlab O'zbekiston Respublikasi hududiga chet davlatlar avtotransport vositalarining kirganligi va uning hududi orqali tranzit o'tishi uchun yig'im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

70 foizi — O'zbekiston Respublikasi davlat budjetiga;

20 foizi — O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga;

10 foizi — Davlat chegarasi orqali avtomobil o'tkazish punktlarida avtotransport vositalarining vazn va gabarit parametrlarini qayd etuvchi (har bir o'qqa tushadigan og'irlikni aniqlash imkoniyatiga ega) maxsus avtomatlashtirilgan o'lchash vositalari bilan jihozlangan zamonaviy nazoratni tashkil etish hamda ushbu bo'xona postlari hududidagi ichki avtomobil yo'llarini tegishli holatda saqlash uchun maqsadli yo'naltirilgan holda bo'xona organlarining budjetdan tashqari jamg'armasiga.

*(3<sup>1</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-noyabrda PQ-5273-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.11.2021-y., 07/21/5273/1014-son)*

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2019-yil 31-dekabrda qadar quyidagilarni tasdiqlashni nazarda tutuvchi hukumat qarorini qabul qilsin:

Qo'mita tomonidan avtomobil yo'llarida avtotransport vositalarining vazn va hajm parametrlariga rioya etilishini nazorat qilish tartibi;

xorijiy yuk avtotransport vositalarining respublika avtomobil yo'llari bo'yab o'tishi kilometrini yoki vaqtini hisob-kitob qilish va buning uchun haq undirish tartibi;

o'lchov vositalarini jihozlash bo'yicha ishlarni 2021-yil oxirigacha yakunlashni nazarda tutgan holda avtomatlashtirilgan o'lchash vositalari bilan jihozlangan avtotransport vositalarining vazn va hajm parametrlariga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha turg'un va ko'chma postlar tashkil etish dasturlari.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi bilan birgalikda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining ajratilgan mintaqalaridagi yer uchastkalari Qo'mitaga bosqichma-bosqich birlashtirilishini ta'minlasin.

6. Transport vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining quyidagi tartibni o'rnatish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin, unga muvofiq:

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining ajratilgan mintaqalarida joylashgan yer uchastkalarida va inshootlarida tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari) Qo'mita ruxsati asosida quriladi;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining yo'l bo'yi mintaqasidagi yer uchastkalarida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo, servis obyektlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati uchun boshqa obyektlar Qo'mita bilan kelishuv bo'yicha joylashtiriladi va quriladi;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining ajratilgan mintaqalarida joylashgan yer uchastkalarida va inshootlarida tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari) qurish uchun elektron auksionlar yakunlari bo'yicha huquq taqdim etishdan tushadigan mablag'lar, shuningdek, tashqi reklamani o'rnatilgan obyektlari (konstruksiyalari) uchun oylik to'lovlar 60 foiz miqdorida Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bosh moliya boshqarmalari huzuridagi hududiy maqsadli jamg'armalarga, 40 foiz miqdorida Jamg'armaga yo'naltiriladi;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining yo'l bo'yi mintaqasida joylashgan yer uchastkalarida ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, savdo, servis obyektlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining boshqa obyektlarini joylashtirish va qurish uchun mazkur yer uchastkalaridan foydalanish huquqini realizatsiya qilishdan tushadigan mablag'larning 60 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bosh moliya boshqarmalari huzuridagi hududiy maqsadli jamg'armalarga, 40 foizi Jamg'armaga yo'naltiriladi;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining ajratilgan mintaqalarida joylashgan yer uchastkalarida va inshootlarida tashqi reklamani joylashtirish huquqi uchun yig'imlardan tushadigan mablag'lar Jamg'armaga yo'naltiriladi.

7. Belgilansinki, Qo'mita O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda moliyalashtirishning belgilangan limitlari doirasida avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash obyektlarining tasdiqlangan manzilli ro'yxatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega.

8. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qurilish vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2020-yil 1-yanvarga qadar yo'l bo'yi servisi obyektlarini joylashtirish va ekspluatatsiya qilish tartibini ishlab chiqsin hamda tasdiqlasin.

9. 2020-2021-yillarda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida pulli avtomobil yo'llarini barpo etish loyihalarini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin, O'zbekiston Respublikasi

transport vazirining va moliya vazirining birinchi o'rinbosarlariga ularni amalga oshirish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

10. Belgilab qo'yilsinki:

"Yo'lqurilish" AJ ustav kapitali 2019-yil 1-iyuldagi aktivlarni hisobga olish holati bo'yicha Qo'mita tarkibidan chiqariladigan korxonalar ustav jamg'armalaridagi davlat ulushlarini nominal qiymati bo'yicha 2020-yil 1-dekabr qadar o'tkazish hisobiga shakllantiriladi;

"Yo'lqurilish" AJ aksiyalarining davlat paketi O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan boshqariladi.

11. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda quyidagi yo'nalishlarda "Yo'lqurilish" AJ faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlasin:

xalqaro standartlar asosida innovatsion texnologiyalarni joriy etgan holda avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash;

zamonaviy avtoyo'l konstruksiyalari va uskunalarini, shuningdek, yuqori sifatli yo'l-qurilish materiallarini ishlab chiqarish;

avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashda mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish;

avtomobil yo'llari bo'ylab servis xizmatlari va infratuzilmalarini rivojlantirish;

jamiyat tarkibiga kiradigan yo'l-qurilish va boshqa korxonalarni bosqichma-bosqich xususiylashtirish choralarini amalga oshirish.

12. "Yo'lqurilish" AJ:

emissiya qimmatli qog'ozlari chiqarishni davlat tomonidan ro'yxatga olish va qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi hujjatlarni ko'rib chiqish uchun yig'imglar;

qayta tashkil etilayotgan korxonalarining o'tkazib berilayotgan avtotransport vositalarini qayta ro'yxatga olishda avtotransport yig'imlarini to'lashdan ozod etilsin.

13. "O'zavtosanoat" AJ 2020-yil 1-martga qadar yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan birgalikda arzon narxlarda, ichki bozor ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli hajmda yuqori sifatli samosvallar ishlab chiqarish tashkil etilishini ta'minlasin.

14. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi Transport vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda respublika shaharlari va tumanlari obodonlashtirish boshqarmalarining yo'l-ko'priklar xo'jaligini ekspluatatsiya qilish bo'linmalari faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilishda Qo'mita bo'linmalari bilan hamkorlik qilishining samarali mexanizmlarini belgilash bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi hukumat qarori loyihasini kiritilsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Transport vazirligi bilan birgalikda ilg'or xorijiy tajriba asosida, mamlakatimizning iqlim xususiyatlarini va harakatlanish intensivligini hisobga olgan holda avtomobil yo'llari va yo'l infratuzilmasini qurish sohasidagi amaldagi normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni faollashtirsin.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3818-son [qaroriga 6-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi:

bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritilsin;

bir oy muddatda avtomobil-yo'l sohasida kadrlar tayyorlash tizimini avtomobil yo'llari qurishning xalqaro standartlariga muvofiq tubdan takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini kiritilsin;

bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin;

2020-yil 1-yanvarga qadar manfaatdor idoralar bilan birgalikda avtomobil yo'llari bo'yicha yetakchi xalqaro tashkilotlarga (Xalqaro yo'llar federatsiyasi, Xalqaro yo'l uyushmasi va boshqalarga) a'zo bo'lishning, shuningdek, avtomobil yo'llari sohasidagi xalqaro shartnomalarga (Xalqaro avtomagistrallar to'g'risidagi Yevropa bitimiga (Jeneva shahri, 1975-yil 15-noyabr) va boshqalarga) qo'shilishning amaldagi ahamiyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin;

2020-yil 1-fevralga qadar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda respublikaning avtomobil yo'llarida yuk avtotransport vositalarining ayrim toifalari harakatlanishi tartibini ishlab chiqsin va tasdiqlasin, yilning harorat yuqori bo'lgan vaqtlarida ularning harakatlanishiga mavsumiy cheklovlar joriy etilishini nazarda tutsin;

ikki oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

18. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.J. Ramatov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.A. Gulyamov zimmasiga yuklansin.


**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**


Toshkent sh.,  
2019-yil 9-dekabr,  
PQ-4545-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2019-yil 9-dekabrda PQ-4545-son  
qaroriga  
1-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining**

**TASHKILIY TUZILMASI**






\* tarkibida yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan mustaqil tarkibiy bo'linmalar mavjud;  
 \*\* Respublika yo'l jam'g'armasi "Avtoyo'linvest" agentligiga aylantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
 2019-yil 9-dekabrda PQ-4545-son  
 qaroriga  
 2-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi markaziy apparati**

**TUZILMASI**



	Mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'limi 2 ed.

2 ed.
-------

2 ed.
Matbuot xizmati 1 ed.

Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni — 82 nafar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2019-yil 9-dekabrda PQ-4545-son  
qaroriga  
3-ILOVA

**Negizida “Yo'lqurilish” AJ tashkil etiladigan O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi  
Avtomobil yo'llari qo'mitasi korxonalari**

RO'YXATI

1. “Mintaqaviy yo'llarni ta'mirlashga ixtisoslashtirilgan korxonalar” UK
2. “Gazli yo'l qurish-ta'mirlash korxonasi” UK
3. “Jizzax yo'l qurish-ta'mirlash korxonasi” UK
4. “Kattaqo'rg'on yo'l qurish-ta'mirlash korxonasi” UK
5. “Qashqadaryo yo'l qurish-ta'mirlash korxonasi” UK
6. “Kitob yo'l qurish-ta'mirlash korxonasi” UK
7. “Qo'qon yo'l qurish-ta'mirlash korxonasi” UK
8. “Namangan yo'l qurish-ta'mirlash korxonasi” UK
9. “Surxondaryo yo'l qurish-ta'mirlash korxonasi” UK
10. “Sirdaryo yo'l qurish-ta'mirlash korxonasi” UK
11. “Farg'ona yo'l qurish-ta'mirlash korxonasi” UK
12. “Chirchiq yo'l qurish-ta'mirlash korxonasi” UK
13. “Yangiyeryo'lindustriya” UK
14. “Chinozyo'lindustriya” UK
15. “Nazarbekavtoyol” UK
16. “Xorazmyo'lqurilish” UK
17. “Yangiyolqurilish” UK
18. “Avtoyol'ta'minot” UK
19. “Avtoyol'mexanizatsiya” UK
20. “Toshkent ixtisoslashtirilgan burg'ulash-portlatish boshqarmasi” UK
21. “Angren ixtisoslashtirilgan burg'ulash-portlatish boshqarmasi” UK
22. “Karatau ixtisoslashtirilgan burg'ulash-portlatish boshqarmasi” UK
23. “Maxsusyo'lqurilish” DUK
24. “Avtomagistral” ixtisoslashgan avtomobil yo'llari qurish-ta'mirlash birlashmasi” UKning Ko'prik qurish uchastkasi
25. “Transyo'lqurilish Maxsus pudrat” MChJ
26. “Transyo'lqurilish Surxon magistral” MChJ
27. “Transyo'lqurilish Qarshi” MChJ
28. “Transyo'lqurilish Magistral” MChJ

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2019-yil 9-dekabrda PQ-4545-son  
qaroriga  
4-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi ixtiyoriga o'tkaziladigan  
ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari**

RO'YXATI

T/r	Ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarining nomlanishi	Joylashuvi (pochta manzili)
1.	Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti	Toshkent sh., A. Temur shoh ko'chasi, 20

2.	Buxoro avtomobillar va yo'llar kasb-hunar kolleji	Buxoro sh., Redaktor ko'chasi, 10
3.	Qo'qon avtotransport kasb-hunar kolleji	Qo'qon sh., Turkiston ko'chasi, 145
4.	Urganch avtomobillar va yo'llar kasb-hunar kolleji	Urganch sh., Gurlan ko'chasi, 2
5.	Toshkent avtomobil yo'llari kolleji	Toshkent sh., Baynalmilal ko'chasi, 51
6.	"Avtomobil yo'llari ilmiy-tadqiqot instituti" UK	Toshkent sh., Lokomotiv ko'chasi, 10
7.	"Buxoro yo'l xo'jaligi xodimlari malakasini oshirish ilmiy-tadqiqot ishlab chiqarish markazi" UK	Buxoro sh., G'ijduvoni ko'chasi, 272-A
8.	"Namangan yo'l xo'jaligi xodimlari malakasini oshirish o'quv markazi" UK	Namangan sh., Sanoat ko'chasi, 19

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2019-yil 9-dekabrda PQ-4545-son  
qaroriga  
5-ILOVA

**2020 — 2022-yillarda davlat-xususiy sheriklik shartlarida pullik avtomobil yo'llarini tashkil etish loyihalarini amalga oshirish bo'yicha**

**"YO'L XARITASI"**

<b>T/r</b>	<b>Loyiha nomi</b>	<b>Loyihalarni amalga oshirish mexanizmi va indikativ muddatlari</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
1.	"Qamchiq" dovonida yangi pullik tonnel qurish	<ol style="list-style-type: none"> <li>Jahon banki tomonidan loyihaning maqsadga muvofiqligini o'rganib chiqish — 2020-yil mart.</li> <li>Jahon banki (XMK) bilan kelishuv tuzish — 2020-yil aprel.</li> <li>DTIHni tayyorlash — 2020-yil may.</li> <li>TIHni tayyorlash — 2020-yil oktyabr.</li> <li>Loyiha konsepsiyasini tayyorlash va kiritish — 2020-yil noyabr.</li> <li>Konsepsiya va TIHni tasdiqlash — 2020-yil dekabr.</li> <li>Tender hujjatlarini tayyorlash — 2021-yil aprel.</li> <li>Tanlov oldi saralash jarayoni — 2021-yil avgust.</li> <li>Takliflarni qabul qilish jarayoni — 2021-yil noyabr.</li> <li>Tender g'olibi bilan kelishuv imzolash — 2022-yil mart.</li> </ol>	<p>Transport vazirligi (I. Maxkamov),</p> <p>Davlat-xususiy sheriklik agentligi (G. Xoljigitov),</p> <p>Toshkent viloyati (R. Xolmatov), Namangan viloyati (X. Bozorov) hokimliklari</p>
2.	"Taxtaqoracha" dovonida yangi pullik tonnel qurish	<ol style="list-style-type: none"> <li>YETTB yoki boshqa konsalting kompaniyasi bilan kelishuv tuzish — 2020-yil yanvar.</li> <li>TIHni tayyorlash — 2020-yil iyun.</li> <li>Loyiha konsepsiyasini tayyorlash va kiritish — 2020-yil iyul.</li> <li>Konsepsiya va TIHni tasdiqlash — 2020-yil sentyabr.</li> <li>Tender hujjatlarini tayyorlash — 2020-yil oktyabr.</li> <li>Tanlov oldi saralash jarayoni — 2020-yil dekabr.</li> <li>Takliflarni qabul qilish jarayoni — 2021-yil fevral.</li> <li>Tender g'olibi bilan kelishuv imzolash — 2021-yil may.</li> </ol>	<p>Transport vazirligi (I. Maxkamov),</p> <p>Davlat-xususiy sheriklik agentligi (G. Xoljigitov),</p> <p>Qashqadaryo viloyati hokimligi (Z. Mirzayev)</p>

3.	Sirdaryo — Baxt shaharlarini aylanib o'tuvchi pullik avtomobil yo'lini qurish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. YETTB yoki boshqa konsalting kompaniyasi bilan kelishuv tuzish — 2019-yil dekabr.</li> <li>2. Loyihani maqsadga muvofiqligini o'rganish — 2020-yil yanvar.</li> <li>3. TIHni tayyorlash — 2020-yil aprel.</li> <li>4. Loyiha konsepsiyasini tayyorlash va kiritish — 2020-yil dekabr.</li> <li>5. Konsepsiya va TIHni tasdiqlash — 2021-yil yanvar.</li> <li>6. Tender hujjatlarini tayyorlash — 2020-yil iyun.</li> <li>7. Tanlov oldi saralash jarayoni — 2020-yil sentyabr.</li> <li>8. Takliflarni qabul qilish jarayoni — 2021-yil yanvar.</li> <li>9. Tender g'olibi bilan kelishuv imzolash — 2021-yil may.</li> </ol>	<p>Transport vazirligi (I. Maxkamov),</p> <p>Davlat-xususiy sheriklik agentligi (G. Xoljigitov),</p> <p>Sirdaryo viloyati hokimligi (G. Mirzayev)</p>
4.	Toshkent — Samarqand pullik avtomobil yo'lini qurish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. YETTB tomonidan loyihaning maqsadga muvofiqligini o'rganib chiqish — 2019-yil dekabr.</li> <li>2. YETTB bilan kelishuv tuzish — 2019-yil dekabr.</li> <li>3. DTIHni tayyorlash — 2020-yil may.</li> <li>4. TIHni tayyorlash — 2020-yil noyabr.</li> <li>5. Loyiha konsepsiyasini tayyorlash va kiritish — 2020-yil dekabr.</li> <li>6. Konsepsiya va TIHni tasdiqlash — 2021-yil yanvar.</li> <li>7. Tender hujjatlarini tayyorlash — 2021-yil iyun.</li> <li>8. Tanlov oldi saralash jarayoni — 2021-yil sentyabr.</li> <li>9. Takliflarni qabul qilish jarayoni — 2021-yil yanvar.</li> <li>10. Tender g'olibi bilan kelishuv imzolash — 2021-yil may.</li> </ol>	<p>Transport vazirligi (I. Maxkamov),</p> <p>Davlat-xususiy sheriklik agentligi (G. Xoljigitov),</p> <p>Toshkent viloyati (R. Xolmatov),</p> <p>Sirdaryo viloyati (G. Mirzayev),</p> <p>Jizzax viloyati (E. Saliyev),</p> <p>Samarqand viloyati (E. Turdimov)</p> <p>hokimliklari</p>
5.	Toshkent — Andijon pullik avtomobil yo'lini qurish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Jahon banki tomonidan loyihaning maqsadga muvofiqligini o'rganib chiqish — 2020-yil mart.</li> <li>2. Jahon banki (XMK) bilan kelishuv tuzish — 2020-yil mart.</li> <li>3. DTIHni tayyorlash — 2020-yil mart.</li> <li>4. TIHni tayyorlash — 2020-yil oktyabr.</li> <li>5. Loyiha konsepsiyasini tayyorlash va kiritish — 2020-yil noyabr.</li> <li>6. Konsepsiya va TIHni tasdiqlash — 2020-yil dekabr.</li> <li>7. Tender hujjatlarini tayyorlash — 2021-yil aprel.</li> <li>8. Tanlov oldi saralash jarayoni — 2021-yil avgust.</li> <li>9. Takliflarni qabul qilish jarayoni — 2021-yil aprel.</li> <li>10. Tender g'olibi bilan kelishuv imzolash — 2021-yil aprel.</li> </ol>	<p>Transport vazirligi (I. Maxkamov),</p> <p>Davlat-xususiy sheriklik agentligi (G. Xoljigitov),</p> <p>Toshkent viloyati (R. Xolmatov), Namangan viloyati (X. Bozorov),</p> <p>Andijon viloyati (Sh. Abdurahmonov)</p> <p>hokimliklari</p>

Izoh. Loyiha maqsadga muvofiq emas deb topilgan taqdirda uning kelgusida amalga oshirilishi o'rnatilgan tartibda to'xtatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2019-yil 9-dekabrda PQ-4545-son  
qaroriga  
6-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3818-son qaroriga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlar**

1-ilovaning rus tilidagi [matnida](#):

a) "8479 10 000 0" tovar pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:



"	8479 10 000 0	oborudovaniye dlya obshchestvennix rabot, stroitelstva ili drugix analogichnix rabot	0	"."
b) "8702 40" tovar pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:				
"	8702 40	motornie transportnie sredstva, prednaznachennie dlya perevozki 10 chelovek ili boleye, vklyuchaya vokitelya, privodimie v dvijeniye tolko elektricheskim dvigatelem	0	"."
v) "8703 80" tovar pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:				
"	8703 80	transportnie sredstva, privodimie v dvijeniye tolko elektricheskim dvigatelem	0	"."
g) quyidagi mazmundagi "8704 90 000" tovar pozitsiyasi bilan to'ldirilsin:				
"	8704 90 000	motornie transportnie sredstva dlya perevozki Грузов, privodimie v dvijeniye tolko elektricheskim dvigatelem	0	"."
d) "8711" tovar pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:				
"	8711	mototsikli (vklyuchaya mopedi) i velosipedi s ustanovlennim vspomogatelnim dvigatelem, s kolyaskami ili bez nix; kolyaski, krome:	20	"."
e) quyidagi mazmundagi "8711 60" tovar pozitsiyasi bilan to'ldirilsin:				
"	8711 60	privodimie v dvijeniye elektricheskim dvigatelem	0	"."

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.12.2019-y., 07/19/4545/4127-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.11.2021-y., 07/21/5273/1014-son)*

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ПРЕЗИДЕНТИНИНГ  
ҚАРОРИ



ПОСТАНОВЛЕНИЕ  
ПРЕЗИДЕНТА  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

20 йил “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ №ПП-4545 “ 9 ” \_\_\_\_\_ декабря \_\_\_\_\_ 2019 г.

**О мерах по дальнейшему совершенствованию системы  
управления дорожной отраслью**

В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от « 9 » декабря 2019 года № УП-5890 «О мерах по глубокому реформированию системы дорожного хозяйства Республики Узбекистан», а также в целях дальнейшего совершенствования системы управления дорожной отраслью республики и повышения ее инвестиционной привлекательности:

1. Утвердить:

организационную структуру Комитета по автомобильным дорогам при Министерстве транспорта Республики Узбекистан согласно приложению № 1;

структуру центрального аппарата Комитета по автомобильным дорогам при Министерстве транспорта Республики Узбекистан согласно приложению № 2;

перечень предприятий Комитета по автомобильным дорогам при Министерстве транспорта Республики Узбекистан, государственные доли в уставных фондах которых передаются АО «Йулқурилиш», согласно приложению № 3;

перечень научно-исследовательских и образовательных учреждений, передаваемых в ведение Комитета по автомобильным дорогам при Министерстве транспорта Республики Узбекистан, согласно приложению № 4.

Предоставить председателю Комитета по автомобильным дорогам при Министерстве транспорта Республики Узбекистан (далее – Комитет) право:

вносить изменения в структуру центрального аппарата Комитета в пределах установленной предельной численности управленческого персонала;

создавать самостоятельные предприятия, занимающиеся ремонтом и эксплуатацией автомобильных дорог, и другие предприятия, в том числе совместные, а также объединять и упразднять предприятия в структуре Комитета по согласованию с Кабинетом Министров Республики Узбекистан.

2. Установить, что:

заместители председателя Комитета назначаются и освобождаются от должности Кабинетом Министров Республики Узбекистан;

Комитет имеет право разрабатывать и вносить в установленном порядке в Администрацию Президента Республики Узбекистан и Кабинет Министров проекты нормативно-правовых актов по вопросам, отнесенным к его компетенции;

проекты нормативно-правовых актов по вопросам автомобильных дорог и дорожного хозяйства подлежат обязательному согласованию с Комитетом;

решения Комитета, принятые в пределах его полномочий, являются обязательными для исполнения органами государственного и хозяйственного управления, органами государственной власти на местах, а также хозяйствующими субъектами и гражданами;

содержание районных дорожно-эксплуатационных предприятий, эксплуатационных линейных предприятий, территориальных подразделений УП «Узйулкукаламзорлаштириш», мостовых эксплуатационных предприятий и других дорожно-эксплуатационных предприятий Комитета, в том числе оплата труда их работников и выплата им дополнительных стимулирующих доплат и надбавок, осуществляются за счет средств выполняемых данными предприятиями объемов работ и других источников, не запрещенных законодательством;

оплата труда международного консультанта, привлекаемого Комитетом, осуществляется за счет средств Фонда развития и поддержки деятельности Комитета по автомобильным дорогам при Министерстве транспорта Республики Узбекистан (далее – Фонд).

### 3. Внедрить порядок, согласно которому с **1 января 2020 года**:

на территории республики контроль за соблюдением весогабаритных параметров тяжеловесных и (или) крупногабаритных автотранспортных средств, в том числе въезжающих в республику, а также взимание сборов за передвижение по автомобильным дорогам и выдачу разрешений на их передвижение (въезд) осуществляет Комитет;

установка технических средств регулирования дорожного движения и их конструкций, включая технические средства фото- и видеофиксации, на автомобильных дорогах общего пользования осуществляется по согласованию с Комитетом;

запрещается проектирование и прокладка новых сетей инженерных коммуникаций продольного расположения под проезжие части автомобильных дорог, за исключением их поперечного пересечения с автомобильными дорогами.

### 4. Кабинету Министров Республики Узбекистан до **31 декабря 2019 года** принять правительственное решение, предусматривающее утверждение:

порядка осуществления Комитетом контроля за соблюдением весогабаритных параметров автотранспортных средств на автомобильных дорогах;

порядка километрового или повременного расчета и взимания платы за проезд иностранных грузовых автотранспортных средств по автомобильным дорогам республики;

программы по организации стационарных и передвижных постов по контролю за соблюдением весогабаритных параметров автотранспортных средств, оборудованных автоматизированными средствами измерения, предусмотрев в ней завершение работ по их организации и оснащению до конца 2021 года.

5. Совету Министров Республики Каракалпакстан, хокимиятам областей и города Ташкента совместно с Государственным комитетом по земельным ресурсам, геодезии, картографии и государственному кадастру Республики Узбекистан обеспечить поэтапное закрепление за Комитетом земельных участков в полосах отвода автомобильных дорог общего пользования.

6. Согласиться с предложением Министерства транспорта, Министерства финансов, Совета Министров Республики Каракалпакстан, хокимиятов областей и города Ташкента об установлении порядка, согласно которому:

сооружение объектов (конструкций) внешней рекламы на земельных участках и сооружениях, расположенных в полосах отвода автомобильных дорог общего пользования, осуществляется на основании разрешения Комитета;

размещение и строительство объектов производства, оказания услуг, торговли, сервиса, а также других объектов для предпринимательской деятельности на земельных участках в придорожной полосе автомобильных дорог общего пользования осуществляются по согласованию с Комитетом;

средства, поступающие от предоставления по итогам электронных аукционов права на сооружение объектов (конструкций) внешней рекламы на земельных участках и сооружениях, расположенных в полосах отвода автомобильных дорог общего пользования, а также ежемесячные платежи за установленные объекты (конструкции) внешней рекламы в размере 60 процентов направляются в территориальные целевые фонды при Министерстве финансов Республики Каракалпакстан, главных финансовых управлениях хокимиятов областей и города Ташкента, 40 процентов – в Фонд;

средства, поступающие от реализации права пользования земельными участками в придорожной полосе автомобильных дорог общего пользования для размещения и строительства на них объектов производства, оказания услуг, торговли, сервиса, а также других объектов для предпринимательской деятельности в размере 60 процентов направляются в территориальные целевые фонды при Министерстве финансов Республики Каракалпакстан, главных финансовых управлениях хокимиятов областей и города Ташкента, 40 процентов – в Фонд;

средства, поступающие от сборов за право размещения внешней рекламы на земельных участках и сооружениях, расположенных в полосах отвода автомобильных дорог общего пользования, направляются в Фонд.

7. Определить, что Комитет имеет право по согласованию с Министерством финансов Республики Узбекистан в пределах установленных лимитов финансирования вносить изменения и дополнения в утвержденные адресные списки объектов строительства, реконструкции и капитального ремонта автомобильных дорог.

8. Министерству транспорта совместно с Министерством экономики и промышленности, Министерством строительства, Министерством финансов Республики Узбекистан, Советом Министров Республики Каракалпакстан, хокимиятами областей и города Ташкента в срок **до 1 января 2020 года** разработать и утвердить порядок размещения и эксплуатации объектов придорожного сервиса.

9. Утвердить «Дорожную карту» по реализации проектов создания платных автомобильных дорог на условиях государственно-частного партнерства в 2020–2021 годах согласно приложению № 5 с возложением персональной ответственности за их реализацию на первых заместителей министра транспорта и министра финансов Республики Узбекистан.

10. Установить, что:

уставный капитал АО «Йулкурилиш» формируется за счет передачи в срок **до 1 декабря 2020 года** по номинальной стоимости государственных долей в уставных фондах предприятий, выводимых из состава Комитета, по состоянию учета активов на 1 июля 2019 года;

управление государственным пакетом акций АО «Йулкурилиш» осуществляет Агентство по управлению государственными активами Республики Узбекистан.

11. Министерству транспорта совместно с Агентством по управлению государственными активами Республики Узбекистан обеспечить реализацию мер по эффективной организации деятельности АО «Йулкурилиш» в следующих направлениях:

строительство, реконструкция и капитальный ремонт автомобильных дорог с внедрением инновационных технологий на основе международных стандартов;

производство современных автодорожных конструкций и оборудования, а также высококачественных дорожно-строительных материалов;

выполнение механизированных работ при строительстве, реконструкции и капитальном ремонте автомобильных дорог;

развитие сервисных услуг и инфраструктуры вдоль автомобильных дорог;

реализация мер по поэтапной приватизации входящих в состав общества дорожно-строительных и других предприятий.

12. Освободить АО «Йулкурилиш» от уплаты:

сборов за государственную регистрацию выпуска эмиссионных ценных бумаг и рассмотрение документов о выпуске ценных бумаг;

автотранспортных сборов при перерегистрации передаваемых автотранспортных средств реорганизуемых предприятий.

13. АО «Узавтосаноат» обеспечить **в срок до 1 марта 2020 года** организацию совместно с ведущими зарубежными компаниями производства высококачественных самосвалов по доступной цене в объеме, достаточном для удовлетворения потребностей внутреннего рынка.

14. Министерству жилищно-коммунального обслуживания Республики Узбекистан совместно с Министерством транспорта и Министерством финансов в двухмесячный срок внести проект правительственного решения, предусматривающего меры по совершенствованию деятельности подразделений по эксплуатации дорожно-мостового хозяйства управлений благоустройства городов и районов республики, в том числе по укреплению их материально-технической базы и определению эффективных механизмов взаимодействия с подразделениями Комитета при эксплуатации автомобильных дорог.

15. Министерству строительства совместно с Министерством транспорта Республики Узбекистан активизировать работу по пересмотру действующих нормативных документов в области строительства автомобильных дорог и дорожной инфраструктуры на основе передового зарубежного опыта, с учетом климатических особенностей страны и интенсивности движения.

16. Внести изменения и дополнения в постановление Президента Республики Узбекистан от 29 июня 2018 года № ПП-3818 «О мерах по дальнейшему упорядочению внешнеэкономической деятельности и совершенствованию системы таможенно-тарифного регулирования Республики Узбекистан» согласно приложению № 6.

17. Министерству транспорта Республики Узбекистан:

**в месячный срок** внести на утверждение в Кабинет Министров проект правительственного решения об утверждении Положения о Комитете по автомобильным дорогам при Министерстве транспорта Республики Узбекистан;

**в месячный срок** внести проект постановления Президента Республики Узбекистан по кардинальному совершенствованию системы подготовки кадров в автомобильно-дорожной сфере в соответствии с международными стандартами строительства автомобильных дорог;

**в месячный срок** внести в Кабинет Министров предложения по повышению эффективности деятельности Инспекции по контролю за качеством дорожно-строительных работ при Министерстве транспорта Республики Узбекистан;

**в срок до 1 января 2020 года** совместно с заинтересованными ведомствами внести в Кабинет Министров Республики Узбекистан предложения о практической значимости вступления в ведущие международные организации по автомобильным дорогам (Международная федерация дорог, Международная дорожная ассоциация и др.), а также присоединения к международным договорам в сфере автомобильных дорог (Европейское соглашение о международных автомагистралях (город Женева, 15 ноября 1975 г.) и др.);

**в срок до 1 февраля 2020 года** совместно с Министерством внутренних дел Республики Узбекистан разработать и утвердить порядок передвижения отдельных категорий грузовых автотранспортных средств по автомобильным дорогам республики, предусмотрев введение сезонных ограничений на их передвижение в высокотемпературные времена года;

**в двухмесячный срок** совместно с заинтересованными министерствами и ведомствами внести в Кабинет Министров Республики Узбекистан предложения об изменениях и дополнениях в законодательство, вытекающих из настоящего постановления.

18. Контроль за исполнением настоящего постановления возложить на первого заместителя Премьер-министра Республики Узбекистан Раматова А.Ж. и советника Президента Республики Узбекистан Гулямова Р.А.


**Президент  
Республики Узбекистан**



**Ш. Мирзиёев**

город Ташкент


**ОРГАНИЗАЦИОННАЯ СТРУКТУРА**  
**Комитета по автомобильным дорогам**  
**при Министерстве транспорта Республики Узбекистан**



\*) в составе имеются самостоятельные подразделения с правами юридического лица;

\*\*\*) Республиканский дорожный фонд преобразуется в Агентство «Автойулинвест».

**СТРУКТУРА**  
**центрального аппарата Комитета по автомобильным дорогам при Министерстве транспорта Республики Узбекистан**





Приложение № 3  
к постановлению Президента Республики Узбекистан  
от 9 декабря 2019 года № ПП-4545

**ПЕРЕЧЕНЬ**  
**предприятий Комитета по автомобильным дорогам при Министерстве**  
**транспорта Республики Узбекистан, на базе которых образуется**  
**АО «Йулкурилиш»**

1. УП «Специализированные предприятия по ремонту региональных дорог»
2. УП «Газлийское дорожное ремонтно-строительное предприятие»
3. УП «Джизакское дорожное ремонтно-строительное предприятие»
4. УП «Каттакурганское дорожное ремонтно-строительное предприятие»
5. УП «Кашкадарьинское дорожное ремонтно-строительное предприятие»
6. УП «Китабское дорожное ремонтно-строительное предприятие»
7. УП «Кокандское дорожное ремонтно-строительное предприятие»
8. УП «Наманганское дорожное ремонтно-строительное предприятие»
9. УП «Сурхандарьинское дорожное ремонтно-строительное предприятие»
10. УП «Сырдарьинское дорожное ремонтно-строительное предприятие»
11. УП «Ферганское дорожное ремонтно-строительное предприятие»
12. УП «Чирчикское дорожное ремонтно-строительное предприятие»
13. УП «Янгиерйулиндустрия»
14. УП «Чинозйулиндустрия»
15. УП «Назарбекавтойул»
16. УП «Хорезмйулкурилиш»
17. УП «Янгийулкурилиш»
18. УП «Автойултаъминот»
19. УП «Автойулмеханизация»
20. УП «Ташкентское специализированное управление буро-взрывных работ»
21. УП «Ангренское специализированное управление буро-взрывных работ»
22. УП «Каратауское специализированное управление буро-взрывных работ»
23. ГУП «Махсусйулкурилиш»
24. Мостостроительный участок УП «Специализированное дорожное ремонтно-строительное объединение «Автомагистраль»
25. ООО «Трансйулкурилиш Махсус пудрат»
26. ООО «Трансйулкурилиш Сурхон магистраль»
27. ООО «Трансйулкурилиш Карши»
28. ООО «Трансйулкурилиш Магистраль»

Приложение № 4  
к постановлению Президента Республики Узбекистан  
от 9 декабря 2019 года № ПП-4545

**ПЕРЕЧЕНЬ**  
**научно-исследовательских и образовательных учреждений,**  
**передаваемых в ведение Комитета по автомобильным дорогам**  
**при Министерстве транспорта Республики Узбекистан**

№	Наименование научно-исследовательских и образовательных учреждений	Местонахождение (почтовый адрес)
1.	Ташкентский институт по проектированию, строительству и эксплуатации автомобильных дорог	г. Ташкент, проспект А.Темура, 20
2.	Бухарский профессиональный колледж по автомобилям и дорогам	г. Бухара, ул. Редактора, 10
3.	Кокандский автотранспортный профессиональный колледж	г. Коканд, ул. Туркистон, 145
4.	Ургенчский профессиональный колледж по автомобилям и дорогам	г. Ургенч, ул. Гурлен, 2
5.	Ташкентский автодорожный колледж	г. Ташкент, ул. Байналминал, 51
6.	УП «Автодорожный научно-исследовательский институт»	г. Ташкент, ул. Локомотив, 10
7.	УП «Бухарский производственный научно-исследовательский центр повышения квалификации работников дорожного хозяйства»	г. Бухара, ул. Гиждувоний, 272-А
8.	УП «Наманганский учебный центр повышения квалификации работников дорожного хозяйства»	г. Наманган, ул. Саноат, 19

Приложение № 5  
к постановлению Президента Республики Узбекистан  
от 9 декабря 2019 года № ПП-4545

**«ДОРОЖНАЯ КАРТА»**  
**по реализации проектов создания платных автомобильных дорог на условиях государственно-частного партнерства**  
**в 2020–2022 годах**

№	Наименование проекта	Механизм и индикативные сроки реализации проектов	Ответственные исполнители
1.	Строительство нового платного тоннеля на перевале Камчик	1. Изучение проекта на целесообразность Всемирным банком – март 2020 года. 2. Заключение соглашения со Всемирным банком (МФК) – апрель 2020 года. 3. Подготовка ПТЭР – май 2020 года. 4. Подготовка ТЭР – октябрь 2020 года. 5. Подготовка и внесение концепции проекта – ноябрь 2020 года. 6. Утверждение концепции и ТЭР – декабрь 2020 года. 7. Подготовка тендерной документации – апрель 2021 года. 8. Процесс предквалификационного отбора – август 2021 года. 9. Процесс запроса предложения – ноябрь 2021 года. 10. Подписание соглашения с победителем тендера – март 2022 года.	Минтранс (И.Махкамов), Агентство ГЧП (Г.Холжигитов), хокимияты Ташкентской (Р.Холматов), Наманганской (Х.Бозаров) областей
2.	Строительство нового платного тоннеля на перевале Тахтакарачи	1. Заключение соглашения с ЕБРР или другой консалтинговой компанией – январь 2020 года. 2. Подготовка ТЭР – июнь 2020 года. 3. Подготовка и внесение концепции проекта – июль 2020 года. 4. Подтверждение концепции и ТЭР – сентябрь 2020 года. 5. Подготовка тендерной документации – октябрь 2020 года. 6. Процесс предквалификационного отбора – декабрь 2020 года. 7. Процесс запроса предложения – февраль 2021 года. 8. Подписание соглашения с победителем тендера – май 2021 года.	Минтранс (И.Махкамов), Агентство ГЧП (Г.Холжигитов), хокимият Кашкадарьинской области (З.Мирзаев)
3.	Строительство платной автомобильной дороги, обходящей города Сырдарья – Бахт	1. Заключение соглашения с ЕБРР или другой консалтинговой компанией – декабрь 2019 года. 2. Изучение проекта на целесообразность – январь 2020 года. 3. Подготовка ТЭР – апрель 2020 года. 4. Подготовка и внесение концепции проекта – декабрь 2020 года. 5. Подтверждение концепции и ТЭР – январь 2021 года. 6. Подготовка тендерной документации – июнь 2020 года. 7. Процесс предквалификационного отбора – сентябрь 2020 года. 8. Процесс запроса предложения – январь 2021 года. 9. Подписание соглашения с победителем тендера – май 2021 года.	Минтранс (И. Махкамов), Агентство ГЧП (Г.Холжигитов), хокимият Сырдарьинской области (Г.Мирзаев)

№	Наименование проекта	Механизм и индикативные сроки реализации проектов	Ответственные исполнители
4.	Строительство платной автомобильной дороги Ташкент – Самарканд	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Изучение проекта на целесообразность ЕБРР – декабрь 2019 года.</li><li>2. Заключение соглашения с ЕБРР – декабрь 2019 года.</li><li>3. Подготовка ПТЭР – май 2020 года.</li><li>4. Подготовка ТЭР – ноябрь 2020 года.</li><li>5. Подготовка и внесение концепции проекта – декабрь 2020 года.</li><li>6. Утверждение концепции и ТЭР – январь 2021 года.</li><li>7. Подготовка тендерной документации – июнь 2021 года.</li><li>8. Процесс предквалификационного отбора – сентябрь 2021 года.</li><li>9. Процесс запроса предложения – январь 2021 года.</li><li>10. Подписание соглашения с победителем тендера – май 2021 года.</li></ol>	Минтранс (И.Махкамов), Агентство ГЧП (Г.Холжигитов), хокимияты Ташкентской (Р.Холматов), Сырдарьинской (Г.Мирзаев), Джизакской (Э.Салиев), Самаркандской (Э.Турдимов) областей
5.	Строительство платной автомобильной дороги Ташкент – Андижан	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Изучение проекта на целесообразность Всемирным банком – март 2020 года.</li><li>2. Заключение соглашения со Всемирным банком (МФК) – март 2020 года.</li><li>3. Подготовка ПТЭР – март 2020 года.</li><li>4. Подготовка ТЭР – октябрь 2020 года.</li><li>5. Подготовка и внесение концепции проекта – ноябрь 2020 года.</li><li>6. Подтверждение концепции и ТЭР – декабрь 2020 года.</li><li>7. Подготовка тендерной документации – апрель 2021 года.</li><li>8. Процесс предквалификационного отбора – август 2021 года.</li><li>9. Процесс запроса предложения – апрель 2021 года.</li><li>10. Подписание соглашения с победителем тендера – апрель 2021 года.</li></ol>	Минтранс (И. Махкамов), Агентство ГЧП (Г.Холжигитов), хокимияты Ташкентской (Р.Холматов), Наманганской (Х.Бозаров), Андижанской (Ш.Абдурахмонов) областей

**Примечание.** При признании проекта нецелесообразным в установленном порядке его дальнейшая реализация приостанавливается.

Приложение № 6  
к постановлению Президента Республики Узбекистан  
от 9 декабря 2019 года № ПП-4545

**Изменения и дополнения,  
вносимые в постановление Президента Республики Узбекистан  
от 29 июня 2018 года № ПП-3818 «О мерах по дальнейшему упорядочению  
внешнеэкономической деятельности и совершенствованию системы  
таможенно-тарифного регулирования Республики Узбекистан»**

В приложении № 1:

а) товарную позицию «8479 10 000 0» изложить в следующей редакции:

« 8479 10 000 0	оборудование для общественных работ, строительства или других аналогичных работ	0	»;
-----------------	---	---	----

б) товарную позицию «8702 40» изложить в следующей редакции:

« 8702 40	моторные транспортные средства, предназначенные для перевозки 10 человек или более, включая водителя, приводимые в движение только электрическим двигателем	0	»;
-----------	---	---	----

в) товарную позицию «8703 80» изложить в следующей редакции:

« 8703 80	транспортные средства, приводимые в движение только электрическим двигателем	0	»;
-----------	--	---	----

г) дополнить товарной позицией «8704 90 000» следующего содержания:

« 8704 90 000	моторные транспортные средства для перевозки грузов, приводимые в движение только электрическим двигателем	0	»;
---------------	--	---	----

д) товарную позицию «8711» изложить в следующей редакции:

« 8711	мотоциклы (включая мопеды) и велосипеды с установленным вспомогательным двигателем, с колясками или без них; коляски, кроме:	20	»;
--------	--	----	----

е) дополнить товарной позицией «8711 60» следующего содержания:

« 8711 60	приводимые в движение электрическим двигателем	0	».
-----------	--	---	----

